

Adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. 2020 йил 29 май куни Сергели туманидаги 329-умумий ўрта таълим мактабини бориб кўриш чоғида. (<https://review.uz/uz/post/shavkat-mirziyoyev>).
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ёшларни харбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепцияси» тўғрисидаги 2018 йил 23 февралдаги 140-сон қарори. <https://lex.uz/docs/3571158>.
3. Пазылов А.К., Қосназаров Қ., Сейтмуратов Қ., Курбаниязова З. Педагогика теорияси. – Т.: “Ношир”, 2018. 456-б.
4. Қосназаров Қ., Абипов Ғ., Пазылов А. Педагогика-психология терминлерининг орысша-қарақалпақша қысқаша түсіндірме сөзлігі. – Нөкіс: «Билим», 1994. 148-б.
5. Педагогика: энциклопедия. II-жилд / тузувчилар: жамоа. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2015. 376-б.
6. Абаев С., Якубов М.А., Алламбергенов Е.А. Кәмил инсан тәрбиясы–миллий идеяның баслы максети // Ilim hám jámiyet. – Нөкіс, 2021. №1. 3-б.
7. Якупов К.А. Педагогические условия патриотического воспитания школьников в условиях современного сельского социума: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Уфа: 2009. – С.23.
8. Бахаудинов, Шамсуддин. Кәмил инсан [текст] / Шамсуддин Бахаудинов. –Т.: Ғафур Ғулам атындағы баспа-полиграфия дәрәтәйишлик үйи, 2021. 272-б.
9. Жакбаров Мухаммаджон. Комил инсон ғоясининг тарихий-фалсафий негизлари. – Т.: “Tafakkur”, 2011. 256-б. 5000 экз. ISBN 978-9943-372-38-2; Б.ц.
10. Камиллов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. 1-китоб. – Т.: “Ёзувчи”, 1996. 272-б.
11. Нишонов С. Комил инсон тарбияси. – Т.: “Истиклол”, 2003. 318-б.
12. Тиллаева Г. Маънавият ва комил инсон тарбияси. –Т.: “Фалсафа ва ҳуқуқ”, 2006. 149-б.
13. Умаров А.А. Ижтимоий маданий таракқиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Т.: 2005. 17-б.
14. Насафий А. Комил инсон китоби. –Т.: “Ғафур Ғулом”, 2021. 232-б.
15. Сидикметов Қ. Муқаддас динимизда ватан туйғуси. Мақола. 04.03.2017. <https://islom.uz/maqola/1586>.
16. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 3 т. – Т.: “Фан”, 1988. 575-б.
17. Айымбетов Қ. Қарақалпақ фольклори. – Нөкіс: “Қарақалпақстан”, 1977. 224-б.

РЕЗЮМЕ. Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishida, rivojlanishida, shakllanishida, barkamollikka erishishida xalq og'zaki adabiyotining o'rni va shu masalalarga bog'liq bo'lgan ayrim tadqiqotchilarning fikrlariga to'xtalib o'tilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье обсуждается роль народной литературы в патриотическом воспитании, развитии, становлении и совершенствовании учащихся младших классов, а также мнения некоторых исследователей по этим вопросам.

SUMMARY. In the article, the role of folk literature is discussed in the patriotic upbringing, development, formation, and perfection of elementary school students and the opinions of some researchers related to these issues.

TAYANCH MA'NAVIY KOMPETENSIYALAR VOSITASIDA 1-SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOY KREATIVLIKNI RIVOJLANTIRISH USULLARI (“Yangi avlod” darsliklari misolida)

M.A.Raximova – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*
Namangan davlat universiteti

Tayanch so'zlar: tarbiya fani, “Yangi avlod” darsliklari, ijtimoiy ko'nikmalar, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini tahlil qilish.

Ключевые слова: предмет Воспитания, учебники “Янги авлод”, социальные навыки, социально-эмоциональные навыки, самооценка, самоанализ.

Key words: subject of Education, textbooks “Yangi avlod”, social skills, socio-emotional skills, self-esteem, self-analysis.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son “Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi [1] qarori qabul qilindi. Qaror asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun “Tarbiya” fani Konsepsiyasi qabul qilindi. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda yoshlar bilan ishlashning yangicha modellarini yaratishda innovatsion mexanizm va texnologiyalarni qo'llashga doir ko'plab amaliy ishlar qilinmoqda. Shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda o'quvchi-yoshlarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlashda mas'uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog'lom e'tiqodlilik, ma'rifatlilik, diniy va milliy bag'rikenglik, ma'naviy, fuqaroviy, madaniyatlararo, ijtimoiy kabi fazilatlarini shakllantirish kun tartibidagi asosiy masalalarga aylanib bormoqda.

Shu bois yoshlar tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan «Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» turkumiga kiruvchi fanlarni o'qitish ta'lim jarayoniga yangicha yondashuvni taqozo etmoqda. Jumladan, yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to'g'ri baho bera olish, ijtimoiy muammolarni hal etishda to'g'ri qaror qabul qilish, hayotda o'z o'rnini topish bilan bog'liq bo'lgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga o'rgatish, buning natijasi o'laroq, oila-jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning uzilib qolishining oldini olish, loqaydlik, huquqbuzarlik, «ommaviy madaniyat»ning turli ko'rinishlaridan saqlash imkonini yaratiladi.

Bu, o'z o'rnida, O'zbekiston Respublikasini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy rivojlantirishning muhim omili bo'lgan yoshlar tarbiyasi shaxsan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuskorligida davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini inobatga olib, ushbu yo'nalishdagi printsiplial yondashuvlarni takomillashtirish, strategik maqsad va vazifalarning konseptual asoslarini ishlab chiqish zaruratini talab qildi.

“Tarbiya” fanining maqsadi – o'quvchilarda ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar, milliy, umummadaniy va faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirish. [3] “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi” da tarbiya nuqtayi nazaridan kompetensiyalarni “fazilatlar” sifatida talqin qilinganiga guvoh bo'lish mumkin. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, qachonki fazilatlar qadriyatlar interiorizatsiyasi (ichki anglanganlik) darajasida namoyon bo'lsa, u holda mazkur jarayonga nisbatan “kompetensiya” tushunchasini qo'llash mumkin. Aniqrog'i, fazilatlarining motivatsion va kognitiv darajada namoyon bo'lishini kompetensiyaning shakllanganligi sifatida e'tirof etish mushkul. Kundalik faoliyat va kasbiy ahamiyatga ega ko'nikmalar – hayot sohibi bo'lmish inson – mamlakat fuqarosini tarbiyalashga umumdavlat-ijtimoiy buyurtmasi bilan; davlat va jamiyatlardagi iqtisodiy, ilmiy, ijtimoiy, ma'naviy o'zgarishlar dinamikasi, inson potentsiali (intellektual, jismoniy, ma'naviy) bilan belgilanadi va kompetensiyalar ana shu qarashlar doirasida shakllanadi.

Boshlang'ich sinflarda “Tarbiya” fanining vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilab olindi:

1) Vatanga, o'zi tug'ilib o'sgan joyga muhabbatni shakllantirish; o'zini o'zi anglash, o'z xulqi va faoliyatini nazorat qilish, o'z-o'zini baholashga o'rgatish;

2) kattalar va tengdoshlari bilan munosabatlarda o'zaro hurmat va axloq qoidalariga rioya qilish; shaxsiy axborot xavfsizligi to'g'risidagi tushunchalarni tarkib toptirish;

3) kasblar to'g'risidagi tasavvurlarini boyitish;

4) mehnatga ijobiy munosabatni tarkib toptirish; bilishga qiziqish va muvaffaqiyatga erishish motivlarini mustahkamlash;

5) mustaqillik, tirishqoqlik va intizomlilikni tarbiyalash;

6) milliy va umuminsoniy an'ana va qadriyatlarga qiziqishni shakllantirish.

2023-2024 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun "Yangi avlod darsliklari" joriy etildi.

Tarbiya fanini o'qitish orqali tayanch ma'naviy kompetensiyalarni shakllantirish orqali bugun biz kutayotgan haqiqiy barkamol shaxslarni tarbiyalash mumkin. Bu o'rinda "Yangi avlod darsliklari" ustivor vazifani bajaradi. Mazkur darsliklar 2022- 2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarga muvofiq aholining hayot darajasini yanada yuksaltirish, ta'lim sifatini ilg'or xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishga erishish hamda kambag'allikni qisqartirish borasidagi islohotlarimizni yangi bosqichga olib chiqish [2] maqsadida ishlab chiqildi.

Darslikdagi 1-sinf uchun berilgan mavzularni tahlil qilar ekanmiz, milliy, umummadaniy va faol fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilganligiga guvoh bo'lamiz.

Milliy va umummadaniy kompetensiyasi:

A1

orasta kiyinish va gigienik talablarga amal qilish; maktabning ichki qoidalariga va odob-axloq qoidalariga rioya qilish;

yaxshi va yomon odatlarni bir-biridan farqlay olish;

milliy bayramlarni, milliy qadriyatlarni, o'zi yashab turgan tarixiy obidalarini bilish va ularni bir-biridan farqlash.

A1+

Vatanimizda mustaqillik yillarida bunyod etilgan inshootlarni hamda tarixiy obidalarini bilish va ularni bir-biridan farqlash.

"Tarbiya" fani 1-sinfda haftasiga 1 soatdan o'qitiladi. Dastur asosida boblar va mavzularning nomlanishi 1-jadvalda keltirib o'tilgan.

1.1-jadval. 1-sinf "Tarbiya" fani mazmunining tuzilmasi va tarkibiy asoslari

№	Sinf	Mavzularning nomlanishi
1.	1-sinf	I bob. Mening Vatanim – O'zbekiston. Mavzular: 1. Men yashaydigan O'zbekiston. 2. Men kimman? 3-4. Maktabga sayohat. 5-6. Maktabim–ikkinchi uyim. 7. Uydan maktabgacha yo'l. 8. Biz ahil jamoamiz. 9. Mustahkamlash II bob. Men va do'stlarim. Mavzular: 10-11. So'zlashish odobi. 12-13.O'zaro yordam. 14-15. Minnatdorlik. 16. Mustahkamlash. III bob. Men va fazilatlarim. Mavzular: 17-18. Ishonch nima? 19-20. Men mustaqil bo'laman. 21-22.Halollik. 23-24. Asrab-avaylaymiz. 25. Mustahkamlash. IV bob. Bizning madaniyatimiz. Mavzular: 26-27. Mening xatti-harakatlarim. 28-29. Mehmondorchilik odobi. 30-31. Bag'rikeng yurtim. 32. Mustahkamlash. 33. Yakuniy dars.

O'quvchi ilk bor maktab ostonasiga qadam qo'yar ekan, mehribon ustoz va o'zi kabi beg'ubor qalblar bilan uchrashadi. O'quvchi uchun davlat rahbarining yuksak e'tirofi ilk bor qo'lga tutqaziladi. Tarbiya kitobining ilk sahifasida ham O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning o'quvchilar uchun nutqlari berilgan bo'lib, bu nutq o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchini, yurtboshimizning ularga bo'lgan ishonchini ko'rsatib beradi. Darsligimizning keyingi sahifalarida o'quvchilar uchun tartibli va toza yurishga o'rgatuvchi, o'quv qurollarini toza va chiroyli saqlash, uyda maktabda yurish qoidalarini berilgan bo'lib, ushbu sahifalar o'qituvchi yordamida anglatib boriladi.

I bob. Mening Vatanim – O'zbekiston deb nomlangan bo'lib, ushbu bo'limni o'quvchining ko'ziga judayam yaxshi tanilgan va tushunishi oson bo'lgan qahramonlardan foydalanilgan. "Men o'zbekman" matni berilgan bo'lib, o'quvchi uchun oson va sodda so'zlar bilan "o'zbek" tushunchasini sharhlab bergan. O'qituvchi uchun ham ushbu matn judayam yaxshi samara beradi.

1-dars mavzusi: Men yashaydigan O'zbekiston deb nomlanib, ushbu mavzuni o'qituvchi yordamida o'rganiladi. O'qituvchi o'quvchilarga Vatan haqidagi fikrlari bilan tanishadi, o'zining muhim tavsiyalarini beradi. SHundan so'ng o'quvchilarning ijtimoiy kreativligini shakllantirish uchun quyidagi interaktiv metodni tavsiya qilamiz.

"Proektiv rasm" o'yini [3]

Mashg'ulotning maqsadi: o'quvchilarda o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantirish, Vatanga bo'lgan muhabbatini shakllantirish, kelajak rejalarini prognoz qilishga o'rgatish. Mashg'ulotni bajara turib, ishtirokchilar ular qanday vaziyatda ham o'zlariga bo'lgan ishonchini, bir-birlari bilan yaxshi munosabatda bo'lishlari kerakligini anglab yetishadi. U ishtirokchilarga o'z ijobiy tomonlarini aniqlashga yordam beradi. Mashg'ulot orqali o'quvchida o'ziga va atrofdagilarga adekvat va ijobiy munosabatda bo'lish ko'nikmasini shakllantirishga erishish mumkin.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi: Hammadan ikkita rasm ishlash so'raladi: "mening hozir yashayotgan Vatanim qanday" va "mening kelajakdagi O'zbekistonim qanday bo'lishini istayman". Rasm ishlashga o'n besh daqiqa ajratiladi. Rasmlar imzolanmaydi. Rasmning texnik jihatlarini muhim emas. Hamma rasmlar xona o'rtasida yoyiladi. Hamma navbat bilan gapiradi. Bunda muallif o'zini tanishtirmaydi. Hamma xohlovchilar gapirib bo'lgach, rasm muallifini topishga urinib ko'rish ham mumkin. Keyin muallif o'zini tanitib, rasmda nimani ifoda etmoqchi bo'lganini tushuntiradi, o'ziga yoqqan replikalarga javob qaytaradi. Muhokama chog'ida kimning talqini mualliflarga ko'proq yoqqanini aytib o'tiladi. Dars so'ngida rasmlar o'quvchilarga tarqatiladi. Har bir o'quvchidan ushbu rasmni uylarida ota-onalariga sovg'a sifatida berishlari tavsiya qilinadi.

Ma'lumki, birinchi sinfga kelgan bola narsalarning rangi, shakli va kattaligini, ularning makonda joylashishini bilish bilan bir qatorda o'zaro taqqoslay ham oladi. Maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun bolada sensor rivojlanish darajasining yuqori bo'lishi juda muhim.[4] Maktab yoshiga kelib, me'yorida rivojlanayotgan bola rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladi. Bola rasmlarda atrof-muhitdagi narsalarni kichiklashtirib tasvirlanganligini anglay biladi. Bu tasvirlar bolada estetik va badiiy didni rivojlantiradi. Chunki bola shu rasmlar orqali olam go'zalligini, uning turfa ranglardan iborat ekanligini anglaydi, ajratadi va o'z ko'nikmasini bildiradi. Bu o'rinda o'qituvchining vazifasi har bir o'quvchini diqqat bilan kuzatish, rasmni tasvirlashda nimalarga ko'proq e'tibor berayotganlarini taxlil qilish, rang tanlashlariga yordam berish va eng muhimi doimiy

rag'batlantirib borish.

Izlanishlarning natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, 7 yoshli o'quvchilar aksariyat hollarda qo'rquvni his etmaydilar. His-tuyg'ularni tushunish va idrok etishdagi nomukammallik tashqi tomondan kattalarning his-tuyg'ularni ifodalashlarini talab qiladi. Shu tariqa aksariyat hollarda muloqotdagi ijobiy hamda salbiy holatlar o'quvchilarga o'tadi [5]. Natijada kichik maktab yoshida ta'lim-tarbiya ta'sirida o'quvchilarning ruhiy rivojlanishlarida jiddiy siljishlar vujudga keladi. Mazkur rivojlanishning hissiy-affektiv jihatlarini o'z-o'zini boshqarish jarayonini muntazam, izchil tarzda rivojlantirishga intilishni ta'minlaydi. Shu asosda

o'quvchilarning ijtimoiy xulq-atvorlari va ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarida barqarorlik tarkib topadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-emotsional munosabatlar tarkibiy qismlarining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi natijasida o'zaro barqaror ko'nikmalar shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar shakllanishining pedagogik-psixologik omillari o'zida ong, ko'nikmalar va xulq-atvorni mujassamlashtiradi. O'quvchining shaxs va o'ziga xos sub'ekt sifatida shakllanish jarayoni qadriyatli-fikriy jihatning faollashuviga olib keladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchi amaliy faoliyatining barcha jihatlarini, ijtimoiy ma'naviy hayotida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil, 6-iyuldagi 422-son "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.07.2020 y., 09/20/422/1033-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 2022-2026-Yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risidagi qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.02.2023 y., PF 27 -son.
3. Raximova M.A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish texnologiyasi: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). ... diss. –Namangan: 2022. 142-b.
4. Abduxolisovna R.M. Technologies for the development of social skills in primary school students.
5. Rahimova M. International evaluation standard of education quality and efficiency implementation of operation. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2019, 1(7), 270-275.
6. Abduxolisovna R.M. Valuable attitude - respect to education Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 04, April 2022 SJIF 2022 = 8.625 A peer reviewed journal.

REZYUME. Ushbu maqolada amaldagi "Yangi avlod" darsliklari haqida fikr yuritilib, 1-sinf Tarbiya fanini o'qitishda tayanch ma'naviy kompetensiyalar vositasida o'quvchilarida ijtimoiy kreativlikni rivojlantirishning metodik usullari bayon etilgan. Shuningdek, muallif 1-sinf tarbiya fani o'qitish orqali o'quvchilarda shakllanishi zarur bo'lgan ijtimoiy-emotsional ko'nikmalarni keltirib o'tgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье рассматриваются действующие учебники «Янги авлод» и описываются методические приемы развития социального творчества учащихся с помощью основных духовных компетенций в преподавании уроков Воспитания в 1-классе. Кроме того, автор упомянул о социально-эмоциональных навыках, которые необходимо формировать у учащихся посредством обучения предмета Воспитания в 1 классе.

SUMMARY. This article examines the current textbooks "Yangi avlod" and describes methodological techniques for developing students' social creativity with the help of basic spiritual competencies in teaching Education lessons in 1-grade. In addition, the author mentioned the social-emotional skills that need to be developed in students through teaching the subject of Parenting in 1-grade.

TARIX FANIDAN O'QUV TOPSHIRIQLARI TUZISHGA PRAGMATIK YONDASHISH

G.A.Rzambetova – *assistent o'qituvchi*

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: pragmatik yondashuv, savol va topshiriqlar, tarix, o'qituvchi, o'quv topshiriqlari, mashg'ulot, o'quv jarayoni, mustaqil ishlash, ma'lumot qidirish, mantiqiy savollar bera olish, baholashga qulay topshiriqlar, mustaqil ta'lim.

Ключевые слова: прагматический подход, вопросы и задания, история, учитель, учебные задания, тренинг, образовательный процесс, самостоятельная работа, поиск информации, умение задавать логические вопросы, задания, удобные для оценки, самостоятельное обучение.

Key words: pragmatic approach, questions and tasks, history, teacher, educational tasks, training, educational process, independent work, information search, ability to ask logical questions, tasks convenient for evaluation, independent learning.

O'qitish metodikasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqotning asosiy vositachisi – bu o'quv topshiriqlaridir. Tarix fanini o'qitish oldiga ham bugungi globallashuv jarayoni bir qator vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, teran tafakkurga ega o'zligini, o'tmishini anglagan, ajdodlariga munosib bo'lish mas'uliyatini anglaydigan yoshlarni tarbiyalash asosiy vazifa bo'lib turgan paytda o'quvchilarga pragmatik o'quv topshiriqlar orqali zarur bilim va ko'nikmalarni berish zarur. Bunday sharoitda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarni mustaqil ishlashga yo'naltiruvchi pragmatik o'quv topshiriqlari tuzish va samarali foydalana olishdir. O'qituvchi, avvalo, to'g'ri va mantiqli savol bera olishi, baholashga qulay o'quv topshiriqlar tuza olishi lozim.

Pedagogikaga doir tadqiqotlarda O.R.Rozikov, B.R.Adizov, I.E.Davronovlar tomonidan ta'lim oluvchining o'quv-biluv faoliyatini rivojlantirish, bunda o'quv topshiriqlaridan foydalanish bilan bog'liq muammolar ham o'rganilgan.

Shu jumladan, A.N.Leontev, J.A.Ponomarev, S.L.Rubenshteyn kabilar o'quv topshiriqlari va ularning didaktikada tutgan o'rni, vazifalari haqida kuzatishlar olib borgan. Jumladan, Leontev "topshiriq" tushunchasini quyidagicha xarakterlaydi: "Topshiriq – muayyan shartlarga asoslanib oldinga qo'yilgan maqsaddir".

Xalqaro pedagogika, xususan, lingvodidaktika sohasida

o'quv topshiriqlarning metodik, psixologik-pedagogik tadqiqi bilan avstraliyalik olim Jak Richards maxsus shug'llangan. Shuni ta'kidlash joizki, o'z davrida g'arb pedagogikasi amaliylikka asosiy e'tiborni qaratgan. Dastlabki pragmatik g'oyalar amerikalik faylasuf va pedagog D.Dyui tomonidan ishlab chiqilgan.

Mashg'ulotlarda o'quv topshiriqlari o'z o'rnida to'g'ri qo'llanilsa, o'quvchilar ma'lumotlar bilan ishlay olishga topshiriqlar orqali to'g'ri yo'naltirilsa, axborot texnologiyalari asrida manba muammo bo'lmaydi. Endi bilimdon o'quvchilar tayyorlash vaqti o'tdi. Bugungi davrning talabi biluvchi, bilib oluvchi o'quvchilarni tarbiyalashdir.

H.Mustafoyeva B.A.Lapidusning quyidagi fikrini keltiradi: "Uning (B.A.Lapidusning) fikricha, o'quv topshiriqlar bevosita nutqiy faoliyat xususiyatlarini qamrab olganligi bilan xarakterlansa, til mashqlari nutqiy muloqot ko'nikmasi taraqqiyotini ta'minlash uchun xizmat qiladi".

Agar o'qituvchi o'quvchiga to'g'ri va maqsadli savol berilsa, hayot uchun foydali topshiriqlarni bajarishga o'rgatilsa, zarur nutqiy malakalar mashq orqali hosil qildirilsa, ijodiy tafakkur sohiblari yetishib chiqishiga sharoit yaratilgan bo'ladi.

X.Muxitdinova o'quv topshiriqlari, jumladan, mashqlarning ahamiyati haqida shunday deydi: "Hozirgi kunda o'qitish tamoyillari, ularda beriladigan o'quv